O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

NUKUS FILIALI

Dasturiy injiniring kafedrasi
Dasturiy injiniring yo’nalishi

Himoyaga ruhsat etildi
Kafedra mudiri
Utiliev.N
_____
2019 y. «___»_____

Interaktiv matematik funksiyalar grafigini chizish dasturiy majmuasini Java tilida yaratish

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bitiruvchi : Allaberganov M.

Rahbar: _____

Ilmiy maslahachi: Bobojanov E.

Nukus 2019

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

NUKUS FILIALI

TELEKOMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI VA KASB TA`LIMI FAKULTETI

“DASTURIY INJINIRING” KAFEDRASI

TASDIQLAYMAN

Kafedra mudiri_____

«____» _____ 2019 y.

Allaberganov Maxmudning

Interaktiv matematik funksiyalar grafigini chizish dasturiy majmuasini Java tilida yaratish mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

TOPSHIRIQ

Bitiruv malakaviy ishining mavzusi

TATU NF-ning «____» _____ 2018 y. buyrig’i bilan tasdiqlandi.

BMI ni topshirish muddati: «____» _____ 2019-yil.

BMIni bajarishga tegishli ma’lumotlar: oquv materiyallari, maruza matn materiallari, ilmiy adabiyotlar va Internet resurs materiyallari.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi:

Kirish

1.Matematik funksiyalar grafigini chizish dasturiy vositalar tahlillari

2.Tekislikda funksiya grafigini chizish dasturiy vositalari.

3.Diagramma va Gistogramma chizish asoslari

4.Java dasturlash tilida interaktiv matematik funksiyalar grafigini chizish dasturiy majmuasini ichlab chiqish.

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

Topshiriq berilgan sa’na «____» _____ 2019-yil.

Ilmiy rahbar _____

Topshiriqni oldı _____

Bitiruv malakaviy ishining paragraflari bo'yincha maslahatchilar.

Paragraflar	Ilmiy maslahatchi	Imzo, sana	
		Topshiriqni berdi	Topshiriqni oldi
1	E.Bobojanov		
2	E.Bobojanov		
3	E.Bobojanov		
4	E.Bobojanov		

BMI ishini bajarish rejasi:

№	Bob (paragraf) nomi	Bajarish muddati	Ilmiy rahbar (maslahatchi imzosi)
1.	Matematik funksiyalar grafigini chizish dasturiy vositalar tahlillari	9.02.2019	
2.	Tekislikda funksiya grafigini chizish dasturiy vositalari.	10.04.2019	
3.	Diagramma va Gistogramma chizish asoslari	15.05.2019	
4.	Java dasturlash tilida interaktiv matematik funksiyalar grafigini chizish dasturiy majmuasini ichlab chiqish.	2.06.2019	

Bitiruvchi M.Allaberganov «____»_____2019 -yil.

Ilmiy maslahatchi E.Bobojanov «____»_____2019 -yil.

Mundarija:

KIRISH

Hozirgi vaqtda axborotni qayta ishlash vositalari sifatida kompyuter texnologiyalarining keng tarqalishi jamiyatni axborotlashtirishga axborot texnologiyalari deb ataladigan sohaning rivojlanishiga olib keldi.

Yangi texnologiyalar rivojlangani sari jamiyatdagilar uchun foydali ammallar oshib boradi,chunki odatda hozir har bir sohada axborot texnologiyalariga bo'lgan talab oshib bormoqda ayniqsa meditsina va ta'lim sohalari axborot texnologiyari bilan chambarchas bo'g'liq bo'lib kelmoqda.

Meditsinada axborot texnologiyalarini qo'llash orqali insonning salomatligi yaxshilash foizi ortib kelmoqda, Ta`lim sohasida esa o'quvchilar bilim salohiyatini oshirishda ancha qulaylik yaratadi.

Mavzuning dolzarbligi. Axborot texnologiyalarini ta`lim sohalarida qo'llash bugungi kunda juda muhim bo'lib sanaladi.Axborot texnologiyalarini ta`lim sohalarida qo'llash orqali murakkab masalarni oddiy va o'quvchilar tushunadigan tarzda yechish imkoni osonlashadi.O'quvchilar odatda matematikani o'rganishda biroz qiynalishadi shuning uchun matematikani o'rgatishda vizualizatsiya jarayonlarini qo'lagan holda o'rgatish o'quvchi tushunish uchun ancha oson va qulay bo'ladi.Bunda asosan biror bir matematik funksiyani yechishda uni grafigini tasvirlab berish orqali o'quvchi bu masalaning to'liq moxiyatini anglab yetishi mumkin bo'ladi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi va vazifalari. Ushbu bitiruv malakaviy ishining maqsadi ta'lim va boshqa murakkab xisob kitoblar amalga oshiriladigan sohalarda axborot texnologiyalaridan foydalangan holda halqilish, Malakaviy ishning vazifasi shundan iboratki, istalgan turdagi matematik funksiyalar grafigini chizib berish va u orqali murakkab masalarga yechim topish. Qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- Matematik funksiyalar grafigini chizishni tahlil qilib chiqish;
- Matematik funksiyalar chizadigan dasturiy muhitlar bilan tanishib chiqish;
- Tekislikda grafik chizish usullarini o’rganib chiqish;
- Diagramma va Gistagrammalarni chizishni o’rganib chiqish;
- Java dasturlash tili bilan tanishib chiqish;
- Java dasturlash tiling grafik imkoniyataridan foydalanib dastur tuzish;
- Interaktiv funksiyalar grafigini chizishni Java tilida ishlab chiqish.

Ishning tuzilishi va tarkibi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, 2 ta bob va xulosadan iborat. Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va maqsadi ochib berildi.

Birinchi bobda matematik funksiyalar grafigini chizish dasturiy vositalar tahlil qilib chiqiladi.

Ikkinchi bobda Java dasturlash tilida interaktiv matematik funksiyalar grafigini chizish va dasturiy majmuasini ishlab chiqiladi.

Xulosa qismida olingan natijalar bajarilgan ishlar tahlil qilinadi.

I-BOB. MATEMATIK FUNKSIYALAR GRAFIGINI CHIZISH DASTURIY VOSITALAR TAHLILLARI

1.1. Matematik funksiyalar grafikini chizish asoslari

Matematikada funktsiya aslida o'zgaruvchan miqdordan boshqa miqdorga bog'liqligini idealizatsiyalash edi. Misol uchun, sayyoralarning pozitsiyasi vaqtning funktsiyasidir. Tarixiy nuqtai nazardan, 17-asrning oxirida tushunchasi infinitesimal hisob-kitob bilan ishlab chiqilgan va 19-asrga qadar ko'rib chiqilgan funktsiyalar farqlanadigan (ya'ni, ular muntazamlik darajasiga ega bo'lgan). Funktsiyaning kontseptsiyasi 19-asrning oxirida to'siq nazariyasi bo'yicha rasmiylashtirildi va bu kontseptsiyani qo'llash sohalarini ancha kengaytirdi.

Matematik nuqtai nazardan qaraladigan bo’lsa funksiya bu biror bir yoki bir nechta o’zqaruvchilar qiymatlarini boshqa bir miqdorga bog’liq tarzda o’zgarishir. Odatda bir nechta qiymatlar orasida bir xil amal bajarishga muhtojlik bo’lsa funksiya yartiladi va shu funksiya yordamida masalani qisqa va oddiy tarzda yechish imkoni mavjud bo’ladi.

Funksiyalar odatda “F(x)” ko’rinishida belgilanadi. Funksiyalar bajaradigan vazifaziga ko’ra bir necha turlarga bo’linadi. Masalan chiziqli funksiya, kvadratik funksiya, integrallashgan funksiyalar va hakazo. Shu funksiyalarni taxlil qilishning ham bir nechta usullari bor bo’lib ularni analitik usul,jadval usul va grafik usullarda tahlil qilish mumkin. Masalani qo’yilgan sharti va yechish oson va qulay bo’ladigan shartni qanoatlantiradigan usul tanlanib funksiyani tahlil qilish mumkin.

Funksiya umumiy holda analitik, jadval, grafik va so‘z usullari bilan berilishi mumkin.

Analitik usul. Ko‘pincha x va y o'zgaruvchilar orasidagi bog'lanish formulalar yordamida ifodalanadi. Bunda argument x ning har bir qiymatiga mos

keladigan funksiyaning y qiymati x ustida analitik amallar — qo‘shish, ayirish, ko‘paytirish, bo‘lish, darajaga ko'tarish, ildizdan chiqarish, logarifmlash va h.k. amallami bajarish natijasida topiladi. Odatda, bunday usul funksiyaning analitik usulda berilishi deyiladi.

Funksiya analitik usulda quyidagi ko‘rinishlarda berilishi mumkin.

1) v=g(x) yoki x=g(y) ko‘rinishdagi formulalar bilan berilgan funksiyalar oshkor ko‘rinishda berilgan funksiyalar deyiladi. Masalan, y=6x-2, $y=x^2+\ln x$ funksiyalar oshkor ko‘rinishda berilgan. Analitik usulda berilgan funksiya bir nechta formulalar vositasida yozilishi ham mumkin, masalan:

$$f(x)=\begin{cases}\cos x, & -\pi\le x\le 0 \quad \text{bo‘lganda},\\ 1, & 0<x<1 \quad \text{bo‘lganda},\\ \dfrac{1}{x}, & 1\le x\le 2 \quad \text{bo‘lganda}.\end{cases}$$

Bu funksiyaning aniqlanish sohasi [-π; 2] bo‘lib, u uchta formula yordamida berilgan.

2) Agar x va y o‘zgaruvchilar qandaydir F(x,y)=0 tenglama bilan bog‘langan, ya‘ni tenglama y ga nisbatan yechilmagan bo'lsa, u holda funksiya oshkormas ko ‘rinishda berilgan deyiladi. Masalan, $x^2 + y^2 – R^2 = 0$ tenglama oshkormas shaklda berilgan funksiyani ifodalaydi, uni y ga nisbatan yechish natijasida ikkita funksiyani hosil qilamiz:

$$y=\pm\sqrt{R^2-x^2}.$$

Balzi bir oshkormas ko‘rinishdagi funksiyalarni y=f(x) (oshkor) ko‘rinishda ifodalash ham mumkin. Har qanday oshkor ko‘rinishdagi y = f(x) funksiyani oshkormas ko‘rinishda yozish ham mumkin: y —f (x)=0.

3) parametrik ko’rinishda, ya’ni:

$$\begin{cases} x = \varphi(t) \\ y = \psi(t) \end{cases} \alpha \le t \le \beta$$

Shu shaklda berilishi. y = f (x) funksiyada x ning y ga mos qo'yilishi parametr deb ataladigan uchunchi bir t o‘zgaruvchining yordamida ifodala- nishi mumkin:

$$\begin{cases} x = \varphi(t) \\ y = \psi(t) \end{cases} \alpha \le t \le \beta,$$

Funksiyalar berilishining eng ko‘p uchraydigan usuli analitik usuldir. Bu usul matematik analizda juda ko‘p ishlatiladi.

Jadval usuli. Ba‘zi hollarda x € X va y € Y o‘zgaruvchilar orasidagi bog’lanish formulalar yordamida berilmasdan, balki jadval orqali berilgan bo‘lishi ham mumkin. Masalan, t — yanvar oyining birinchi dekadasi (10 kunligi) kunlari nomeri bo'lsa, T — shu nomerli kuni soat 16^{00} da Urganch shahrida kuzatilgan havo haroratini bildirsin, natijada quyidagi jadvalga kelamiz:

t	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
T	−3°	−5°	+2°	+5°	+1°	0°	−2°	−5°	−3°	−1°

bunda t — argument, T — funksiya bo‘ladi. Bog’lanishning bunday berilishi jadval usulda berilishi deb ataladi. Bu usuldan ko‘pincha miqdorlar orasida tajribalar o‘tkazish jarayonida foydalaniladi.

Jadval usulining qulayligi shundan iboratki, argumentning u yoki bu aniq qiymatlarida, funksiyani hisoblamasdan, uning qiymatlarini aniqlash mumkin. Jadval usulining qulay bo‘lmagan tomoni shundan iboratki, argumentning o‘zgarishi bilan funksiyaning o‘zgarish xarakterini to‘liq aniqlab bo‘lmaydi.

Grafik usuli. xOy koordinata tekisligida x ning X to‘plam (X=D(f)) dan olingan har bir qiymati uchun M(x,y) nuqta yasaladi, bunda nuqtaning abssissasi x, ordinatasi y esa funksiyaning x ga mos kelgan qiymatiga teng. Yasalgan

nuqtalami tutashtirsak, natijada biror chiziq hosil boiadi, hosil bo‘lgan bu chiziqni berilgan funksiyaning grafigi deb qaraladi (1.1- chizma).



1. 1.1-chizma

Tekislikning (x, f(x)) kabi aniqlangan nuqtalaridan iborat ushbu

{(x, /(x))}={(x/(x)):x € X, y=f(x) € Y}

to‘plam, funksiyaning grafigi deb ataladi.

xOy tekisligida shunday L chiziq berilgan bo‘lsin, Ox o‘qda joylashgan nuqtalardan shu o‘qqa o‘tkazilgan perpendikular L chiziqni faqat bitta nuqtada kesib o‘tsin. Ox o'qdagi bunday nuqtalardan iborat to‘plamni X orqali belgilaymiz. X to‘plamdan ixtiyoriy x ni olib, bu nuqtadan Ox o‘qiga perpendikular o‘tkazamiz. Bu perpendikularning L chiziq bilan kesishgan nuqtasini y bilan belgilaymiz. Natijada X to‘plamdan olingan har bir x ga yuqorida ko'rsatilgan qoidaga ko‘ra bitta y mos qo‘yilib, funksiya hosil bo’ladi. Bunda x va y o‘zgaruvchilar orasidagi bog'lanish L cliiziq yordamida berilgan bo‘ladi (1.2-chizma). Odatda funksiyaning bunday berilishi uning grafik usulda berilishi deb ataladi.

Funksiyaning grafik usulda berilishi ilmiy tadqiqotlarda va hozirgi zamon ishlab chiqarishi jarayonlarida keng qo'llaniladi. Masalan, tibbiyotda uchraydigan elektrokardiogramma grafigi—yurak muskullaridagi tok impulslarining vaqt

bo‘yicha o'zgarishini ko‘rsatadi. Bu grafik analitik tarzda yozilishi shart bo‘lmagan biror y =f(x) funksiyaning grafigidir, bu funksiyaning formulasi shifokor uchun unchalik qiziqarli emas (1.1.3- chizma).

Funksiyaning grafik usulda berilishining kamchiligi shundan iboratki, argumentning sonli qiymatida berilgan funksiyaning aniq ko'rinishini har doim topib bo'lavermaydi, lekin bu usulning boshqa usullardan afzalligi uning ta‘siri yaqqol ko‘zga ko‘rinib turishidadir.





1.1.2-chizma **1.1.3-chizma**

So‘zlar orqali ifodalanadigan usul. Bu usulda (x€X, va y€Y) o‘zgaruvchilar orasidagi funksional bog‘lanish faqat so‘zlar orqali ifodalanadi.

1- misol. Har bir ratsional songa 1 ni, har bir irratsional songa 0 ni mos qo‘yish natijasida ham funksiya hosil bo‘ladi. Bu funksiya, odatda, Dirixle funksiyasi deyiladi va D(x) kabi belgilanadi:

$$D(x) = \begin{cases} 1, \text{agar } x \text{ ratsional son bo‘lsa,} \\ 0, \text{agar } x \text{ irratsional son bo‘lsa.} \end{cases}$$

2- misol. f — har bir x haqiqiy songa uning butun qismi [x] ni mos qo‘yuvchi qoida bo‘lsin. Demak, f : x —»[x] yoki y= [x] funksiyaga ega bo‘lamiz.

3- misol. f — har bir haqiqiy x songa uning kasr qismi {x} ni mos qo'yadigan qoida bo‘lsin, ya‘ni f:x —» {x}. Bu holda biz y={x} funksiyaga ega bo‘lamiz.

Argumentning funksiya ma'nosini yo‘qotmaydigan (ya‘ni cheksiz yoki mavhumlikka aylantirmaydigan) hamma qiymatlari to‘plami shu funksiyaning aniqlanish sohasi deyiladi. Agar funksiya jadval shaklida berilsa, uning aniqlanish sohasi x ning jadvalda ko‘rsatilgan qiymatlaridan iborat bo‘ladi. Agar funksiya grafik shaklda berilsa, uning aniqlanish sohasi grafikdan ko'rinib turadi. Funksiya analitik shaklda berilganda esa x ning funksiyani aniqlaydigan formula ma'noga ega bo‘ladigan qiymatlari to‘plami shu funksiyaning aniqlanish sohasi bo'ladi. Funksiyaning aniqlanish sohasini topish vaqtida formulani boshqa ko'rinishga keltirish tavsiya etilmaydi.

Funktsiya - bu funktsiyaning ta'sir doirasi X ning har bir elementini x ga qo'shadigan jarayon yoki munosabat, ya'ni boshqa funktsiyaning Y (ehtimol bir xil to'siq) ning bitta elementiga, funktsiyaning kodomainasiga bog'liqdir. Funktsiya f deb ataladigan bo'lsa, bu munosabat y = f (x) (x) o'qiladi, element x funksiyaning argumenti yoki kiritilishi va y funksiyaning qiymati, chiqishi yoki f tomonidan f (x) ko'rinishi kirishni ifodalash uchun ishlatiladigan belgilar funktsiyaning o'zgaruvchisidir (ko'pincha f ning o'zgaruvchining x funktsiyasidir).

Funktsiya barcha juftliklar majmuasi bo'lgan (x, f (x)) grafigi bilan ifodalanadi. Domen va kodomain raqamlar majmuasi bo'lganda, har bir juftlik tekislikdagi nuqta karteziya koordinatalari deb hisoblanishi mumkin. Umuman olganda, ushbu nuqtalar funktsiyaning grafigi deb ataladigan bir egri hosil qiladi. Bu hamma joyda keng tarqalgan funktsiyaning foydali tavsifi. Misol uchun, narx ko'rsatkichlari va birja indekslarining evolyutsiyasini ifodalash uchun, gazetalarda ko'pincha funktsiyalarning grafikalari ishlatiladi.

Matematikada f funktsiyasining grafikasi rasmiy ravishda barcha buyruqlar juftlarining (x, f (x)) majmui bo'lib, bu x funktsiya funktsiyasi doirasiga kiradi.

Ikkita o'zgaruvchining funktsiyasi bo'lib, domen ikki juftdan tashkil topgan (x, y) funktsiyalar bo'lsa, grafik barcha tartiblangan uchburchaklarning to'plamiga ((x, y, f (x, y)) aniqlanishi mumkin. Ikkita real o'zgaruvchining doimo aniq qiymatli funksiyasi, grafika bir sirtdir.

Funktsiyaning grafigi tushunchasi munosabatlar grafigiga umumlashtiriladi. Bir munosabatning grafigi birinchi o'zgaruvchining x funktsiyasini anglatishini tekshirish uchun, vertikal chiziq testidan foydalaniladi. Grafika ikkinchi o'zgarmaydigan y funktsiyasini anglatadimi yoki yo'qligini tekshirish uchun gorizontal chiziq testidan foydalaniladi. Funksiya teskari bo'lsa, teskari grafika asl funktsiyaning grafigini y = x yo'nalishida aks ettirish orqali topiladi.



1.1-rasm.y = x grafigi

1.2. Tekislikda funksiya grafigini chizish dasturiy vositalari

Matematikani o’rganish matematik moslamalarni va protseduralarni ko'rish va namoyish etish bilan chambarchas bog'liq.

Ta'limdagi texnologiyadan foydalanish an'anaviy ta'limdan ko'ra o'rganishni yaxshilaydi.Matematikani o’rganishda qo’llaniladigan bir qancha dasturiy vositalar bordir, ular yordamida matematikani tushunish yanada yaxshi bo’ladi ya`ni bu dasturiy vositalar yordamida o’quvchilar matematik xisob kitoblarni vizual tarzda ko’rib bajarishlari mumkin bo’ladi. Matematik xisob

kitoblarni bajaradigan dasturiy vositalarga misol qilib Microsoft Mathematics, Matlab,Maple va boshqa dasturiy vositalarni olishimiz mumkin. Microsoft Mathematics dasturi Microsoft kompaniyasi tomonidan tayyorlangan bepul dasturiy vosita hisoblanadi, bu dasturda hisoblash tizimi matematik ifodalarga asoslangandir.

Microsoft Mathematics – bu matematik hisoblash dasturlari bo'lib o'quvchilarga muammolarni hal qilishda yordam berish uchun foydalidir. Bu dastur yordamida Lineer algebra, statistika, matematika va trigonometik xisob kitoblarni amalga oshirish mumkin.

Microsoft Mathematics dasturi ta`limida matematikani o'rganish asosiy maqsadlardan biri va barcha talabalarning matematikani tushunishdagi muvaffaqiyatini ta'minlashdir. Matematikani o'rganish eng murakkab masalalardan biri hisoblanadi va ta'limning muammoli jihatlari hisoblanadi. Shu bilan birga,eng muhimi matematikani kundalik hayotda keng qo'llaniladigan bilim sifatida fanga o'qitish hisobga oladigan va boshqa ko'plab ilm-fan sohalarida. Matematika - har bir sohaning kontseptsiyalarini tahlil qilishning asosiy vositasi inson hayotining yo'nalishi. Shuning uchun o'qituvchilarni o'rgatish tizimini rivojlantirishga alohida e'tibor berish kerak.

Ko'pgina talabalar matematik tushunchalar bilan shug'ullanish uchun qiyinalishadi. Vizualizatsiya yordamida qo'llab-quvvatlanadigan tadbirlar matematikani o'rganishni yaxshilaydi.

Matematikani o'rganishga yordam berish uchun grafik tasvir yaratish o'quvchilar tushunishni yanda yaxshilaydi. Shuning uchun matematikani o'rganishda Microsoft Mathematics daturidan foydalanish ancha qulay va tushunarli bo'ladi. Bu dasturda matematik xisob kitoblarni yechibginaqolmay balki ularni grafiklarini chizib ham ko'rish imkoniyati mavjudir. Bu esa yuqorida takidlanganidek matematikani o'rganishda grafik tasvirdan foydalanish tushunish uchun qulaydir.

Matematika deyarli hamma o'quv dasturlarida muhim rol o'ynaydi misol uchun muhandislik, fan, biznes, iqtisod, informatika va axborot kabi fanlarni o'z ichiga oladi.

Dasturda matematika tushunchalari sodda, mantiqiy va ierarxik tarzda eng sodda tarzda joylashtirilgan.Boshqacha qilib aytganda, kontseptsiyani tushunish va o'zlashtirish mahorat talab qiladi.

Microsoft Mathematics - Microsoft komponiyasi tomonidan ishlab chiqilgan bepul dasturiy ta'minot. Ushbu dastur matematik masalarni yozish, hisoblash va manipulyatsiya qilish,2D, 3D grafik tasvirlarni hosil qilish va animatsiyani ifodalash va grafik vizualizatsiya qilish oson amalga oshirishni ta'minlaydi.



1.2.1-rasm. Microsoft Mathematics daturining interfeysi

Microsoft Mathematics oynasida to'rtta asosiy qism bor:

1. Kalkulyator paneli(Calculator Pad);
2. Ishchi yorlig'i(Worksheet tap);
3. Tasvirlash yorlig'i(Graphing tap);
4. Matematika vositalari(Math tools);

Kalkulyator paneli(Calculator Pad) – bu qism matematik hisoblash uchun tugma guruhlaridan iborat. O'rta maktab va o'rta maktab matematikasida ishlatiladigan standart tugmalardan tashqari,matematika, statistika, trigonometriya va lineer algebra kabi tugmalar ham mavjud.

Ishchi yorlig'i(Worksheet tap) – bu qismda Microsoft Mathematics dasturini ochishda ko'rsatuv yorliq paydo bo'ladi. U erda ko'pgina kirish va chiqish ko'rsatiladi va pastki qismida matn yozish joyida klaviaturadan yozish imkoni mavjud.

Tasvirlash yorlig'i(Graphing tap) – bu qism grafikalar yaratish uchun ishlatiladi. Bundan tashqari tenglama, funktsiyalar, tengsizliklar, ma'lumotlar to'plamlari va parametrik tenglamalar uchun ishlatiladigan panellalar mavjud.

Matematika vositalari(Math tools) – bu qism quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Tenglama hisoblovchi - tenglamalarni yoki tenglama tizimlarini echish uchun ishlatiladigan vosita;
- Formulalar va tenglamalar – matematika fanida tez-tez ishlatib turadigan formulalarni o'z ichiga oladi;
- Triangle Solver - uchburchakning burchak o'lchovlari va yon uzunligini topadigan vosita;
- Birlik ishlab chiqarish vositasi - bir o'lchov birligini boshqasiga aylantirish uchun vosita;

Microsoft Mathematics dasturida asosiy matematik hisob-kitoblarni qanday bajarish kerakligini ko’rib chiqamiz

Raqamli hisob-kitoblarda ishlatiladigan Microsoft Mathematicsning uchta qismi mavjud:

1. Buyruqlar tugmalari joylashgan kalkulyator paneli (yashil quti);
2. Buyruqlar yoziladigan kirish qutisi (sariq quti);

3. Kirish joyi, qadam hisob-kitoblari (mavjud bo'lsa) va hisoblash natijalari ko'rsatiladi. Kiritish matn qutisi va chiqarish qutilari ish varag'i ko'rinishida joylashgan.

Quyidagi hisob-kitoblarni bajarish uchun Microsoft Mathematicsni ochiladi.

1-misol: 2 (5 + 3) ni hisoblash

- ✓ Ishchi yorlig'i(Worksheet tap) sahifasida ishlanilayotganiga ishonch hosil qilinadi;
- ✓ Kursorni hisoblash uchun matn maydoniga kiritiladi (sariq rangli qutiga qarang);
- ✓ Keyin 2 (5 + 3) ni kiritiladi yoki oyna chap pastki qismida joylashgan kalkulyator klaviaturasidan foydalaniladi;
- ✓ Klaviaturadan ENTER tugmasini bosiladi, yoki kalkulyator pastki qismidagi ENTER tugmasini bosiladi;
- ✓ Natija quyidagicha ko’rinadi.



1.2.2-rasm. Microsoft Mathematics daturida asosiy xisob-kitoblar.

Microsoft Mathematics dasturida 2 va 3 o'lchamli kartezyen grafikalar va 2 o'lchovli qutb grafikalarini qanday yaratishni va grafika oynasining parametrlarini qanday qilib o'zgartirishni ko’rib chiqamiz.

1. Microsoft Mathematics ochiladi.

2. Tasvirlash yorlig'ini tanlanadi.
3. Y = x^2 + 2x - 3 va y = 3x funksiya yoziladi. Ustun uchun ^ belgisini ishlatiladi.
4. Tenglama kiritilgandan so'ng **Graphing** tugmachasi bosiladi.



2.3-rasm. Tenglamani kiritish ketma-ketligi.

Tenglama va funktsiyalar ostida 2D va Cartesianning tanlanganligiga ishonch hosil qilinadi.



1.2.4-rasm. 2D da chizilgan grafik

Grafika ko'rsatilgandan so'ng, quyidagilarni bajarish uchun asboblar panelidagi tugmalardan foydalanishingiz mumkin. Asboblar panelidagi Tasvirni nolga o'rnatish oynasini ochish orqali grfika oynasini tozalash mumkin.

Microsoft Mathematics dasturi yordamida matematik maslarni yechishi oson tarzda amalga oshirsh mumkin va ularning grafiklarini chizib ko’rgan ham matematikani tushunish uchun ancha qulaylik yaratadi.Matematik funksiyalarni yechish va ularning grafikini tasvirovchi boshqa bir qancha dasturiy vositalar ham mavjud bo’lib ularning ichida foydalanish anch oson bolgan dasturiy vosida bu Matlab dasturi hisoblanadi.

Matlabda oddiy hisoblashlarni ko’rib chizamiz

Matlab dasturiy vositasininng tizimi shunday ishlab chiqilganki, hisoblashlarni, foydalanuvchi dasturini tayyorlamasdan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bajarish imkoni mavjud. Bunda Matlab super kalkulyator vazifasini bajarib, qatorli komanda rejimida ishlayoladi. Misol uchun: >>2+3, ans=5; >>2*3, ans=6 va xokazo.

Matlab tizimida ishlash muloqotli (dialogli) tavsifga ega bo‘lib, “savol berildi – javob olindi” qoidasi bo‘yicha ishlanadi. ya’ni foydalanuvchi klaviatura yordamida hisoblanishi lozim bo‘lgan ifodani kiritadi, tahrir qiladi (agar lozim bo‘lsa) va kiritishni ENTER klaviaturasini bosib yakunlaydi.

Umuman olganda, ma’lumotlarni kiritish va hisoblashlarni amalga oshirish quyidagicha amalga oshiriladi:

- Boshlang‘ich ma’lumotlarni kiritishni ko‘rsatish uchun “>>” belgisidan foydalaniladi;
- Ma’lumotlar odatda oddiy yozuvli tahrir yordamida kiritiladi;
- Biror bir ifoda hisoblash natijasini blokirovka qilish uchun mazkur ifodadan keyin - ; (nuqta vergul) qo‘yiladi;
- Hisoblashlar natijasini ko‘rsatuvchi o‘zgaruvchi aniqlanmagan bo‘lsa, u holda Matlab tizimi bunday o‘zgaruvchi deb *ans*oladi;
- O‘zlashtirish amali sifatida juda ko‘plab dasturlash tillari kabi : = belgi emas, balki matematikadagi oddiy = ni o‘zi olinadi;
- Sozlangan funksiyalar (masalan, sin) yozma harflar bilan yoziladi hamda ularning argumentlari oddiy qavslar ichida yoziladi;
- Hisoblashlar natijasi yangi qatorda >> belgisiz chiqadi;
- Muloqot “Savol berildi – javob olindi” ko‘rinishida amalga oshadi.

Ma’lum bo’lganidek juda ko‘plab matematik tizimlarda, agar u son bo‘lmasa, u holda sin(v) va exr(v) ifodalarni hisoblab bo‘lmaydi, ya’ni tizim

bunday ifodalarni xato deb beradi. Matlabda esa agar berilgan o‘zgaruvchi vektor bo‘lsa, natija ham mazkur o‘lchamdagi vektor bo‘ladi, agar matritsa bo‘lsa, natija ham matritsa bo‘ladi.

Komandali rejimda asosan bir qatordagi belgilarning maksimal soni – 4096, m – fayllarda esa chegaralanmagan. Barcha matematik tizimlarning markaziy tushunchasi bu matematik ifodalardan tashkil topgan. Ma’lum bo’lishicha, matematik ifodalar ustida amallar bajarilayotganda, asosan ularning sonli qiymatlaridan foydalaniladi (kam holatlarda belgi ko‘rinishlaridan ham foydalaniladi).

Matlabham matematik tizim bo‘lgani uchun bu erda ham asosiy tushuncha matematik ifodalardir. Matlabda matematik ifodalarni ifodalashni qarab chiqaylik. Matlabda ifodalar bir qator ko‘rinishida ifodalanib, sonlarni butun qismlarini ajratish uchun verguldan emas balki nuqtalardan foydalaniladi. Quyida ba’zi bir ifodalarni Matlab va oddiy matematikadagi ifodalanishini ko‘rib chiqamiz:

Matlabda	Matematikada
2+3	2+3
2^3*sqrt(y)/2;	23√y/2
2.301*sin(x);	2,301sin(x)
4+exp(3)/5;	4+e3/5

Matematik ifodalar asosan sonlar, konstantalar, o‘zgaruvchilar, operatorlar, funksiyalar va turli xil maxsus belgilar ustiga quriladi. Ilgari aytib o‘tganimizdek, nuqta vergul, ya’ni ; belgi natijani chiqishini blokirovka qiladi, ammo *ans* maxsus o‘zgaruvchi yordamida natijani olishimiz mumkin.

Son – Matlab tilining eng oddiy ob’ektlaridan biri bo‘lib, u miqdoriy ma’lumotlarni ifodalab beradi. Sonlarni konstanta deb hisoblash mumkin.Sonlar

butun, kasr, fiksirlangan va suzuvchi nuqtali bo‘lishi mumkin. Ularni yaxshi ma’lum bo‘lgan ilmiy shaklda, ya’ni mantissa va son tartibini ko‘rsatgan holda ifodalash mumkin.

```
0
-3
2.301
123.456e-24
-234.456e10
```

yuqoridan ko‘rinib turibdiki, mantissadan sonning butun qismi kasr qismidan, juda ko‘plab dasturlash tillarida qabul qilinganidek, vergul orqali emas, balki nuqta orqali ajratiladi. Son tartibini mantissadan ajratish uchun ular orasiga e belgisi qo‘yiladi. “+” ishora sonlar oldiga qo‘yilmaydi, “-” ishora esa qo‘yiladi va uni unar minus deb nomlanadi. Sonlarda belgilar orasiga probel (bo‘sh joy) qo‘yish ruxsat etilmaydi. Bundan tashqari sonlar kompleks bo‘lishi mumkin: z=Re(z) + Im(z)*i. Bunday sonlar Re(z) haqiqiy va Im(z) mavhum qismga ega bo‘linadilar. mavhum qism kvadrat darajasi -1 ga teng bo‘lgan, *i* va *j* ko‘paytuvchilarga ega bo‘ladi:

```
3i
2j
2+3i
-3.141i
-123.456+2.7e-3i
```

real (z) funksiya kompleks sonning butun qismini, image(z) – esa mavxum qismini ajratib beradi. Kompleks sonning modulini (kattaligini) abs(z) funksiya, fazasini angle(z) funksiya hisoblab beradi.

Misol uchun:

```
>> i
Ans=0+1.000i
>>z=2+3i
Z=2.000+3.000i
>>abs(z)
Ans=3.6056
>>real(z)
```

```
Ans=2
>>Imag(z)
Ans=3
>>angle(z)
Ans=0.9828
```

Matlabda grafik chizishning imkoniyatlarini ko’rib chiqamiz.

Matlab bu asosan matematik xisob kitoblarini amalga oshiruvchi dasturiy vosita bo’lib unda matematik funksiyalar grafiginiham chizish imkoni bor. Chunki Matlab ikki o‘lchovli grafika asosida ishlaydi. Matlab tizimining eng katta xususiyatlaridan biri, unda grafik chizish imkoniyatini mavjudligidir.

Matlabda grafiklarni har xil koordinata sistemalarida qurish mumkin. Bulardan to‘g‘ri burchakli dekart koordinatalari sistemasi, polyar koordinatalari, sferik vassilindrik sistemalarni keltirish mukin. bundan tashqari koordinatalarni bir sistemadagi ko‘rinishidan boshqa ko‘rinishga o‘tkazish mumkin.

Matlab yordamida ikki vektor grafigini chizishning eng sodda va umumiy komandalari bor bo’lib ular quyidagicha yoziladi.

- plot(x,y) x va y vektorlarning dekart tekisligidagi grafigini chizishda ishlatiladi;
- plot(y) y ning y - vektor elementlari nomerlarga nisbatan grafigini hosil qiladi;
- semilogx(x,y) “x”ni logarifmi grafigini “ y” ga nisbatan chizadi;
- semilogy(x,y) “x”ning grafigini “y” ning logarifmiga nisbatan chizishda ishlatiladi;
- loglog(x,y) “x”ni logarifmini “y” ni logarifmiga nisbatan grafigini chizadi;
- grid -koordinatalar sistemasida to‘rni paydo qiladi;
- title (‘matn’)- grafik tepasiga matn yozishda ishlatiladi;
- xlabel (‘matn’) - “matn”ni “x” o‘qi ostiga yozishda ishlatiladi;

- ylabel (‘matn’)- “matn”ni “ y ” o‘qining chap tomoniga yozishda ishlatiladi;
- text(x,y,’matn’)- “matn”ni (x, y) nuqtaga yozishda ishlatiladi;
- polar(theta, r)- r va theta vektorlarning polyar koordinatalar sictemasida grafigini hosil qiladi (theta radianlarda beriladi);
- bar(x) yoki stairs(x)- “x” vektorning gistogrammasini hosil qiladi;
- bar(x,y) yoki stairs(x,y)-“u” vektor elementlarini gistogrammasini “x” vektorning elementlariga mos to‘plamga joylashtirib yasaydi;

Ma’lum bo’lganidek, dekart koordinatalar sistemasida grafik chizish (x, y) juftligini qiymatlarini aniqlab, hosil bo‘lgan nuqtalarni kesmalar bilan tutashtirish orqali yaratiladi.bundan ko’rinib turibtiki (x, y) juftliklar soni qanchalik ko‘p bo‘lsa grafik ham shunchalik silliq va aniqroq bo‘ladi. Juftliklar avvaldan berilgan bo‘lishi yoki ma’lum funksiyaning argumenti va qiymatlaridan hisoblab hosil qilinishi yoki tajriba o‘tkazish natijasida olingan bo‘lishi mumkin.

Misol uchun $y=e^x$ funksiyaning $x\epsilon[0,2]$ sigmentdagi grafigini chizish kerak bo‘lsa, unda quyidagi matlab komadalari ketma-ketligidan foydalaniladi:

```
>>x=0:.1:2;
>>y=exp(x);
>> plot(x,y)
```



1.2.5-rasm. $y=e^x$ funksiyaning $x\epsilon[0,2]$ sigmentdagi grafigi.

rlot(x,y) – buyrug’i grafik oynasini ochadi va unda kerakli funksiya grafigini hosil qiladi.

Ko‘pgina holatlarda grafik komandalar M-faylga joylashtiriladi (Ishchi fayl yoki fayl funksiyalar). Bu usul xatoliklarni to‘g‘rilash uchun yaxshi imkoniyat beradi.

Quyidagi misollarni ko’rib chiqamiz:

Misol sharti shundan iboratki bunda %x ni logarifmini sin(x) ni logarifmiga nisbatan chizilgan grafigini (x=0:.1:10;loglog(x,sin(x),’--ob’);grid on) chizish.



1.2.6-rasm. %x ni logarifmini sin(x) ni logarifmiga nisbatan chizilgan grafigi

Bu yerda ‘--’ -liniya turi, ‘0’-aylana tugun nuqta turi, ‘b’-havorang liniya rangi.Endi boshqa bir tur grafik funksiyadan foydalanib ko‘ramiz:

```
>> x=0:0.5:10;
>> semilogy(x,sin(x),'--or')
>> grid
```



1.2.7-rasm. grafik chiziqlarini rangini, turini, tugun nuqtalarini ko‘rsatish.

Bu misollardan ko‘rinib turibdiki, matlab tizimida grafik chiziqlarini rangini, turini, tugun nuqtalarini ko‘rsatish va boshqa imkoniyatlar mavjud.

Har bir masalani yechishni bir nechta usuli bo’lgani kabi matematik funksiyalarni chizishda foydalaniladigan dasturiy fositalarning ham turlari bo’r ularda masalani hal qilish bir biridan farq qiladi masalan Maple dasturida matematik funksiyalarni chizish grafik tasvirini chiroyliroq ko’rinishda aks etirb beradi.

Mapleda dasturida funksiya grafigini yasashni ko’rib chiqamiz.

Mapel dasturi ikki o`lchovli grafikaga asoslanib ishlaydi.Biror bir funksiya grafigini chizish uchun **plot** komondasidan foydalaniladi shuning uchun plot komondasi va uning parametrlari ko’rib chiqamiz.

Matematik funksiyaning grafigini (Ox o`qi bo`yicha $a \le x \le b$ intervalda va Oy o`qi bo`yicha $c \le y \le d$ intervalda) hosil qilish uchun **plot** komondasi ishlatiladi. Uning umumiy ko`rinishi quyidagicha bo’lib **plot(f(x), x=a..b, y=c..d, parametrs)**, bu yerda **parametrs** qismi – tasvirni boshqarish imkoniyatlari. Agarda parametrlari ko`rsatilmay qolsa jimlik bo`yicha o`rnatishdan foydalaniladi. Shu bilan bir qatorda tasvirlarga tuzatishlar kiritish vositalar paneli orqali ham amalga oshiriladi. **plot** buyrug`ining asosiy xususiyatlari:

1) **title=”text”** text - bu tasvirning sarlavhasi, lotin harflari bilan probelsiz yoziladi, qo`shtirnoq belgisini yozmasa ham bo`ladi.

2) **coords=qutb** – bu polyar koordinatani o`rnatish parametri.

3) **axes** – koordinata o`qlari turlarini o`rnatish parametri: axes=NORMAL – oddiy o`qlardir; axes=BOXED – ramkada shkalali grafikadir; axes=FRAME – rasmning pastki chap burchagi markazi bo`lgan o`qlardir; axes=NONE – o`qsiz bo’lan parmeter.

4)**scaling** – tasvir masshtabini o`rnatish parametri: scaling=CONSTRAINED – o`qlar bo`yicha bir xil masshtabni o’rnatish; scaling=UNCONSTRAINED – grafik oyna o`lchovi bo`yicha masshtablanadi.

5) **style=LINE(POINT)** – chiziqlar (yoki nuqtalar) bilan chiqarish parametri.

6) **numpoints=n** – grafikaning hisobga olinadigan nuqtalarini (jimlik qoidasi buyicha n=49) o’rnatish.

7) **color** – chiziq rangini o`rnatish parametri: ranglar ingilscha nomlar bilan yoziladi, masalan: yellow – sariq va h.

8) **xtickmarks=nx** va **ytickmarks=ny** – mos ravishda , Ox va Oy o`qlari bo`yicha belgilar sonini aniqlaydi.

9) **thickness=n, n=1,2,3…** - chiziq qalinligini o’rnatish (jimlik buyicha n=1).

10) **linestyle=n** – chiziq turini aniqlash: uzluksiz, punktirli va h. (n=1 – uzluksiz).

11) **symbol=s** – nuqtalar orqali hosil buladigan belgi turini aniqlash: BOX, CROSS, CIRCLE, POINT, DIAMOND.

12)**font=[f,style,size]** – matnni chiqarish uchun shrift turini o`rnatish xususiyati: f shriftlar nomini bildiradi: TIMES, COURIER, HELVETICA, SYMBOL; style shrift stilini bildiradi: BOLD, ITALIC, UNDERLINE; size – pt da shrift katta kichikligini bildiradi.

13) **labels=[tx,ty]** – koordinata o'qlari yozuvini o'rnatish: tx – Ox o`qi bo`yicha va ty – Oy o`qi bo`yicha.

14)**discont =true** – cheksiz uzilishlarni yasash uchun ko`rsatmani bildiradi. plot buyrug`i yordamida y=f(x) funksiya grafigi bilan birga, ochiq ko`rinishda, parametrik berilgan y=y(t), x=x(t) funksiyalar grafigini ham yasash mumkin: plot([y=y(t), x=x(t), t=a..b], parameters).

1. [-4π , 4π] intervalda y = sin x / x funksiya gafigini chizishni ko'rib chiqamiz. Buning uchun quyidagilar teriladi:

```
>plot(sin(x)/x,              x=-4*Pi..4*Pi,              labels=[x,y],
labelfont=[TIMES,ITALIC,12], thickness=2);
```



1.2.1-chizma. y = sin x / x funksiya grafigi.

```
> plot(cos(x)/x, x=0.5...5, color = black, numpoints = 100);
```



1.2.2-chizma.y=cos x / x funksiyasi grafigi.

```
>plot([x^2 + sin(x^3), 20 * exp(-2 * x) * sin(x)], x=-1..5,-1...5,
color = [red, blue], linestyle=1);
```



1.2.3-chizma.Yuqoridagi funksya grafigi.

1.3. Diagramma va gistogrammalar chizish asoslari

Diagramma vizualizatsiya metodlaridan foydalangan holda axborotning ramziy ifodasidir. Diagrammalar qadim zamonlardan beri qo'llanilgan, ammo mafkura davrida keng tarqalgan. So'zning grafigi ba'zida diagrammada sinonim sifatida ishlatiladi.

"Diagramma" atamasi keng tarqalgan ma'noda ishlatilishi mumkin, umumiy yoki o'ziga xos ma'noga ega:

- visual ma'lumotli qurilma: "illyustratsiya" atamasi kabi, "diagramma" barcha texnik janrlardan, jumladan grafikalar, texnik chizmalar va jadvallardan tashkil topgan bo'lishi mumkin.
- vizual ekranning o'ziga xos turi: bu chiziqlar, strelkalar yoki boshqa. havolalar bilan bog'langan shakllar bilan sifatli ma'lumotlarni ko'rsatadigan janrdir.

Fan falsafasi har ikki usulda ham qo'llaniladi. Misol qilib aytganda, "diagrammalar tasviriy, ammo mavhum, ma'lumotlarning namoyishi va xaritalar, chiziqli grafikalar, chizilgan grafikalar, muhandislik loyihalari va me'morlarning eskizlari diagrammalarning misolidir.

Aniq ma'noda grafikalar va kompyuter grafikalari, texnik illyustratsiyalar, infografika, xaritalar va texnik chizmalar bilan farq qiladi, "ma'lumotlarning tom ma'nodagi tasviri emas, mavhum. Diagrammaning mohiyati sifatida ko'rish mumkin formatlash qurilmalari shakli, nicel ma'lumotlar (raqamli ma'lumotlar) ko'rsatilmagan ekran emas balki aloqalar va mavhum ma'lumotlar,chiziqlar, o'qlar yoki boshqa havolalar bilan bog'langan geometrik shakllar kabilar kiradi.

Diagrammalar soddalashtirilgan raqamlar, karikaturalarning muhim ma'noni etkazish uchun mo'ljallangan.Ushbu soddalashtirilgan raqamlar odatda bir qator qoidalarga asoslanadi. Oq ga asosan asosiy shakli "nafislik, aniqlik, qulaylik, naqsh, soddaligi va haqiqiyligi" bilan ifodalanishi mumkin.

Asosiy diagramma turlari:

Grafikga o'xshash diagrammalar, ular orasida ma'lumotlar va munosabatlar to'plashni oladi va ularni har bir elementga 2D pozitsiyasini berib, ifodalar o'rtasida ma'lumotlar orasidagi o'zaro bog'liqlik sifatida ifodalanadi; Bunday texnikaning namunalari:

Daraxt strukturasi yoki daraxt diagrammasi grafik strukturadagi strukturaning ierarxik tabiatini ifodalashning bir usuli hisoblanadi. U "daraxt tuzilishi" deb ataladi, chunki klassik vakolat daraxtga o'xshaydi, hatto grafika aslida daraxt bilan qiyoslanadi, yuqorida "ildiz" va pastda "barglar" mavjud.



1.3.1-rasm.Daraxt diagrammasi

Grafika chizma matematika va kompyuter fanining geometrik grafik nazariyasi va axborot vizuallashtirish usullarini birlashtirib, ijtimoiy tarmoq

tahlillari, kartografiya, tilshunoslik va bioinformatika kabi ilovalardan kelib chiqadigan grafikalarning ikki o'lchovli tasvirlarini birlashtiradigan maydonidir.



1,3.2-rasm.Venn diagrammasi

Venn diagrammasi - har xil to'plamlarning cheklanmagan to'plamlari o'rtasidagi barcha mumkin bo'lgan mantiqiy munosabatlarni ko'rsatuvchi diagramma. Ushbu diagrammalar elementlarni tekislikdagi nuqtalar sifatida tasvirlaydi va yopiq chiziqlar ichidagi maydonlar sifatida belgilanadi. Venn diagrammasi ko'pincha bir-biriga mos keladigan ko'plab chiziqli egri chiziqlar, odatda doiralar. S belgisi bilan belgilangan egri ichidagi fikrlar S to'plamining elementlarini ifodalaydi, chegaradan tashqaridagi fikrlar esa S belgisida bo'lmagan elementlarni ifodalaydi. Bu tasvirni oson o'qishni ta'minlaydi;

Masalan, S va T, S ∩ T ikkala jamoasining a'zolari bo'lgan barcha elementlar majmuyi S va T hududlarining bir-biriga kesishish maydoni bilan ifodalanadi.

Venn diagrammasi 1880 yilda Jon Venn tomonidan yaratilgan. Ular oddiy elementlar nazariyasini o'rgatish uchun ishlatiladi, shuningdek, ehtimollik,mantiq, statistika, tilshunoslik va kompyuter fanida sodda aloqalarni tasvirlaydi.



1.3.3-rasm.Raqamli ma’lumotlar tasvirlangan gitogramma.

Gistogramma raqamli ma'lumotlarning taqsimlanishining aniq ifodasidir. Gistogramma birinchi marotaba Karl Pearson tomonidan ishlab chiqilgan. Bir satr grafigi ikkita parametr bilan bog'liq degan ma'noni anglatadi, ammo gistogramma faqat bittasi bilan bog'liq. Gistogrammani yaratish uchun birinchi bosqich qadriyatlar diapazoniga, ya'ni butun qiymat oralig'ini bir qator ketma-ketliklarga bo'linib, keyin har bir oraliqda qancha qiymatning tushishini hisoblashdir. Ildizlar ko'pincha ketma-ket, o'zgaruvchan ketma-ketliklar sifatida aniqlanadi.

Gistogramalar ma'lumotlarning asosiy taqsimotining zichlik darajasini qo'zg'atadi va ko'pincha zichlikni baholash uchun pastki o'zgaruvchining ehtimollik zichligi funktsiyasini baholaydi. Imkoniyat zichligi uchun ishlatiladigan gistogrammaning umumiy maydoni har doim 1 ga normallashtiriladi. Agar x o'qi bo'yicha intervallarning uzunligi 1 bo'lsa, u holda gistogramma nisbatan chastota uchastkasi bilan bir xil bo'ladi.

Gistogramma javonlarning chastotalarini tekislash uchun yadrodan foydalanadigan sodda yadro zichligi hisob-kitoblari sifatida qaralishi mumkin. Bu esa, umuman olganda, asosiy o'zgaruvchining taqsimotini aks ettiradigan yanada aniq ehtimollik zichligi funksiyasini beradi. Zichlikdagi hisob-kitoblar gistogramma muqobil ravishda tuzilishi mumkin va odatda qutilar to'plami

o'rniga egri chiziladi. Gistogramlar ularning statistik xususiyatlarini modellashtirish zarur bo'lganda dasturlarda afzallik beriladi.

Gistogrammalar ba'zan chiziqli grafikalar bilan aralashtiriladi. Gistogramma uzluksiz ma'lumotlar uchun ishlatiladi, Ayrim mutaxasislar bar chartlaridagi farqlarni aniqlashtirish uchun to'rtburchaklar orasida bo'shliqlar mavjudligini tavsiya qiladi. Umuman, matematik ma'noda, histogram funksiyasi - bu har qanday ajratilmagan toifalarga kiradigan kuzatuvlar sonini hisobga oladigan funksiya. Bu histogramning grafigi faqat histogramni ifodalashning bir usuli hisoblanadi.

Ba'zi teoretiklar optimal sonini aniqlashga urinishgan, ammo bu uslublar odatda tarqatish shakli haqida kuchli taxminlar hosil qiladi. Haqiqiy ma'lumot taqsimotiga va tahlil maqsadlariga qarab, turli xil bin kengliklari mos kelishi mumkin, shuning uchun odatda mos kenglikni aniqlash uchun tajriba talab etiladi. Shu bilan birga, turli xil foydali qo'llanmalar va qoidalar mavjud.

Gistogramma uzluksiz ma'lumotlar to'plamining asosiy chastotasini taqsimlash (shakl) ni aniqlash va ko'rsatish imkonini beruvchi uchastkadir. Bu ma'lumotlar uning asosiy tarqalishi (masalan, an'anaviy taqsimot), chiqishi, skeletlari va boshqalar uchun tekshirilishiga imkon beradi. Gistogrammani va undagi xom ma'lumotlar quyidagicha ifodalanadi:

Gistogramlar maydonchaning balandligi emas, balki maydonga asoslangan.

Gistogrammada bu har bir quti uchun sodir bo'lgan chastotani ko'rsatadigan satr maydoni. Buning ma'nosi shuki, barning balandligi har bir binada qancha ballarni ko'rish mumkinligini ko'rsatmaydi.

Grafika va gistogramma o'rtasidagi asosiy farq shundan iboratki, gistogramma faqat to'plamlarga bo'linib, to'plamlarga ajratilgan uzluksiz ma'lumotlar to'plamida ballar sonini tez-tez tekshirish uchun ishlatiladi. Boshqa

tomondan, chiziqli jadvallar oddiy va nominal ma'lumotlar silsilasini o'z ichiga olgan ko'plab boshqa turdagi o'zgaruvchilar uchun ishlatilishi mumkin.

Amaliy hisoblarda biror vektor tarkibini tasvirlaydigan ustunli diagrammalar deb ataluvchi gistogrammalar ko‘p uchraydi. Bunda vektorning har bir elementi balandligi uning qiymatiga mos bo‘lgan ustun shaklida ko‘rsatiladi. Ustunlar tartib raqamlariga va eng baland ustunning maksimal qiymatiga nisbatan ma’lum masshtabga ega bo‘ladi. Bunday grafiklar masalan, iqtisodiy o‘zgarish va boshqa jarayonlarni ifodalashi mumkin. Ular bar(a) komandasi yordamida yasaladi. Masalan:

```
>> a=[2 4 6 8 10 12];
>> bar(a)
```

Yuqoridagi komandani yozgan holda quyidagi gistogrammani tuzish mumkin:



1.3.4-rasm.Gistogrammaga misol

Gistogramma tuzishning yana boshqa usuli ham mavjud bo‘lib, bu hist funksiyasi yordamida yasaladi:

- **N=hist(u)**- avtomatik tarzda tanlangan 10 intervalli vektor qiymatini qaytaradi;
- **N=hist(u,m)**- yuqoridagi kabi ishlaydi, faqat M (M-skalyar) intarvalda qaytaradi;

Quyidagi misolni ko‘rib chiqamiz:

```
>> x=-3:0.2:3; y=randn(1000,1);
>> hist(y,x); h=hist(y,x)
Columns 1 through 13
2     3     4     5     4    12    20    22    30    32    39    56
   73
Columns 14 through 26
64    66    88    81    71    72    60    47    33    35    25    20
    12
Columns 27 through 31
8     7     3     3     3
```



1.3.5-rasm.Yuqoridagi misolning gistogrammasi

Qutbli koordinatalar tizimida ixtiyoriy nuqta joylashgan xuddi radius vektor oxiri kabi, koordinatalar tizimining boshlang‘ich nuqtasidan chiqib, RHO uzunlikka va THETA burchakka egaligini ko‘rsatadi. RHO(THETA) funksiya grafigini tuzish uchun quyidagi buyruqlardan foydalaniladi.THETA burchak odatda 0 dan 2π gacha o‘zgaradi. Qutbli koordinatalar tizimida funksiya grafigini tuzish uchun quyida keltirilgan buyruqlardan foydalaniladi :

- **polar(THETA,RHO)** - qutbli koordinatalar tizimida radius-vektor oxirining o‘z holatidagi RHO uzunlik bilan va THETA burchakni ko‘rsatib beruvchi grafikani tuzadi;
- **polar(THETA,RHO, S)** - analogli avvalgi buyruqda ishtirok etgan, lekin S qatorli konstanta yordamida tuzish uslulini analogli plot buyrug‘i asosida ruxsat beradi.

Quyidagi misolni ko’rib chiqamiz:

```
>> angle=0:.1*pi:3*pi;
```

```
>> r=exp(angle/10);
>> polar(angle,r),...
>> polar(angle,r);
>> title('polyar koordinatida grafik');
>> grid on
```



1.3.6-rasm.Yuqoridagi misolning grafigi.

I-BOB. JAVA DASTURLASH TILIDA INTERAKTIV MATEMATIK FUNKSIYALAR GRAFIGINI CHIZISH,DASTURIY MAJMUASINI ISHLAB CHIQISH

2.1. Java dasturlash tili

Java dasturlash tili - eng yaxshi dasturlash tillaridan biri bo'lib unda korporativ darajadagi mahsulotlarni(dasturlarni) yaratish imkoniyati mavjud. Bu dasturlash tili Oak dasturlash tili asosida paydo bo'ldi. Oak(ma'nosi eman daraxti) dasturlash tili 90-yillarning boshida Sun Microsystems(hozirda Oracle nomidan ish yuritadi) tomonidan platformaga(operatsion tizimga) bog'liq bo'lmagan holda ishlovchi yangi avlod aqlli qurilmalarini yaratishni maqsad qilib harakat boshlagan edi. Bunga erishish uchun Sun hodimlari C++ ni ishlatishni rejalashtirishgan edi, lekin ba'zi sabablarga ko'ra bu fikridan voz kechishdi. Oak muvofaqiyatsiz chiqdi va 1995- yilda Sun uning nomini Java ga almashtirdi, va uni WWW rivojlanishiga hizmat qilishi uchun ma'lum o'zgarishlar qilishdi.

Java dasturlash tili 1990 yillarda ishlab chiqarila boshlangan bo'lsa ham, uning birinchi versiyasi(Java 1.0) 1996 yil ommaga taqdim etilgan. Undan so'ng keyingi versiyalar sekin-astalik bilan chiqa boshladi: 1998 yil - Java 2, 2004 yil - Java 5.0, 2006 yil - Java 6, 2011 yil - Java 7, 2014 yil - Java 8. Java Obyektga yo'naltirilgan dasturlash tili va u C++ ga ancha o'xshash. Eng ko'p yo'l qo'yildigan xatolarga sabab bo'luvchi qismalari olib tashlanib, Java dasturlash tili ancha sodda tarzda ishlab chiqildi. Java texnologiyasi o'ta sodda, xavfsizlikni yuqori darajada ta'minlab bera oladigan, kuchli, to'la obyektga yo'naltirilgan dasturlash tili bo'lib, muhit (platforma)ga bog’liq bo'lmagan holda ishlaydi. U bilan xatto eng kichik qurilmalarga ham dasturlar yozish imkoniyati mavjud.

Java texnologiyasi to'laligicha Java Virtual Machine(JVM) ga asoslangan. Java Virtual Machinening vazifasi tarjimonlik ya'ni, dastlab biz yozgan *.java fayl kompilyator yordamida bayt kodga o'giriladi va Java Virtual Machine

yordamida esa mashina tiliga aylantiriladi. Bundan ko’rinib turibdiki Java Virtual Machine qaysi platformaga tegishli bo'lsa, kodlarni ham o'sha platformaga moslab beradi.

Java dasturlash tilining imkoniyatlari:

- ✓ WORA - Write Once, Run Anywhere (portable). Platforma tanlamaydi;
- ✓ Xavfsizlik (ishonch yo’q kodni havfsiz ishga tushirish);
- ✓ Xotirani xavfsiz boshqarish (avtomat ravishda musorlarni yig’adi);
- ✓ Tarmoq uchun dasturlar yozish ;
- ✓ Ko’p oqimli (Multi-thread) dasturlash;
- ✓ Dinamik kengaytirish;
- ✓ klasslar alohida fayllarda saqlanadi. Kerak bo’lsa ishlatiladi. Agar kerak bo’ls dinamik ravishda imkoniyatini oshirish ham mumkin.

JAVA tilining asosi bu - ob'ektga yo'naltirilgan dasturlash (OYD) ning prinsiplarini amalga oshirish. Ob'ektga yo'naltirilgan metodika JAVA dan ajiralmas va barcha JAVA ning dasturlari qandaydir bir ob'ekt yo'nalishiga egadir. Shuning uchun oddiy JAVA dasturini yozishdan oldin, OYD haqida tushunchaga ega bo'lishimiz kerak. OYD - bu kuchli vosita bo'lib dasturlashni takomillashtiruvchi prosess. Kompyuter kashf etilgandan boshlab murakkab dasturlarni soddalashtirish maqsadi dasturlash usullari ko’p marotaba o'zgardi. Masalan birinchi kompyuterlar bilan dasturlashtirish mashinaning qo'llanish qoidalari yordami bilan amalga oshirilgan yoki bu usul dastur uzunligida instruksiyalar bir nechta bo'lganiga qadar ishladi. Dasturning hajmi o'sishiga boqliq assembler tili yaratildi. Bu til dasturchilarga mashina instruksiyasining simvolik ko'rinishidan foydalanib yanada bundan kattaroq va qiyiniroq dasturlarni yozish imkoniyatini berdi. Dasturning hajmining o'sishiga boqliq turda yuqori darajadagi tillar (masalan, FORTRAN , COBOL) paydo bo'ldi va dasturchilarga o'sib borayotgan dastur qiynchiliklarni engishga yordam berdi. Bu

birinchi kompyuter tillari kritik holatga yaqinlashganda strukturali dasturlash paydo bo'ldi.

